

PARRANDA VA PARRANDAXONALAR GIGIYENASI

Xo'jaxonova Moxinur Farxodjon qizi

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali magistranti*

Abbosov Umidjon Maxmudjonovich

Vitebsk davlat veterinariya akademiyasi magistranti

Eshmatov G'ayrat Xurram o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali dotsenti*

Xo'jaxonov Shoxruxon Idrisxo'ja o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali v.f.f.d., (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada parrandalarni parvarish qilishda rioya etilish lozim bo'lgan zoogigiyenik me'yorlar hamda parrandalar saqlanadigan binolarga qo'yiladigan talablar hususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о зоогигиенических нормах, которые необходимо соблюдать при содержании птицы и требованиях к помещениям, в которых содержится птица.

Abstract. This article provides information on the zoohygienic standards that must be followed when keeping poultry and the requirements for buildings where poultry are kept.

Kalit so'zlar. Zoogigiyena, KBM-2, KBM-2A, KBM-25, pol, katak, pat, go'sht, tuxum, to'shama, qo'noq, dezomat, dezobarer, dezokamera, inkubatsiya.

Ключевые слова. Зоогигиена, KBM-2, KBM-2A, KBM-25, пол, клетка, перья, мясо, яйца, подстилка, гостевая, дезомат, дезобарьер, дезокамера, инкубация.

Keywords. Zoo hygiene, KBM-2, KBM-2A, KBM-25, floor, cage, feathers, meat, eggs, bedding, guest, dezomat, dezobarer, dezocamera, incubation.

Kirish. Parrandalar uchun quriladigan parrandaxonalar saqlash usuliga qarab moslashtiriladi. Parrandalar asosan *polda* va *katakli* batareyalarda saqlanadi. Erkin holda almashtiriladigan yoki almashtirilmaydigan qalin to'shamalarda saqlansa ichiga qo'noqlar qilinadi yoki qo'noqsiz bo'ladi. Alohida yoki guruh holida kataklarda saqlansa boshqa parrandaxona, lager sharoitida saqlansa boshqa binolar quriladi.

Parrandalardan asosan tuxum, go'sht va qo'shimcha ravishda pat olinadi. Shuning uchun veterinariya-sanitariya va gigiyena talablarini hammasini inkubatsiyaga, jo'jalarni o'stirish, katta yoshdagi parrandalarni parvarish qilish, broyler jo'ja go'shtini yetishtirishga qaratish lozim. Parrandalarni erkin holda va kataklarda saqlashni o'ziga xos afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Erkin holda saqlanganda bemalol harakat qiladi, toza havo va quyosh nuridan foydalanadi, modda almashish yaxshilanib, kasalliklarga chidamliligi ortadi, ammo hamma qilinadigan ishlar qo'l kuchi bilan bajariladi. Kataklarda saqlansa hamma texnologik jarayonlar mexanizatsiyalashtirilib mehnat yengillashadi, mahsulot tannarxi arzonlashadi. Lekin bir bosh parranda uchun ajratilgan joy maydoni kengayadi, ya'ni 1 m² joyga erkin holda boqilsa 5 - 6 bosh joylashtiriladi.

Hozirgi vaqtda parrandaxonalar qurishda TLM 4 - 83 talabiga javob beradigan yangi loyihalardan foydalanilmoqda. Parranda fermalari va fabrikalarini qurishda joyni to'g'ri tanlash, binolarni joylashtirish, bosh sonini ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish, sog'lom parranda yetkazish asosiy vazifadir. Parrandaxonalar o'rtasida yo'lak qo'yilib ikkiga bo'linadi. Har tomoni ham yana bir nechta seksiyalarga bo'linib, alohida eshiklar qo'yiladi. Ferma atrofi 2 metr balandlikda devor bilan o'ralib, yagona kirish chiqish yo'li qilinadi. Tovuqxonaning janubiy tomonidan yayratish maydoni qilinib, qo'noqlar o'rnatiladi. Qo'noqlar har 250-500 bosh tovuq, 100 o'rdak, 60 g'oz va 150 ko'rkaga bitta o'rnatiladi. Parrandaxonalarining poli yer, sement, asfaltdan bo'lishi mumkin. Tovuqxona ichida kataklar, oxur, sug'orish idishi (avtosug'orgich), kul solingan yashikchalar o'rnatiladi, Kul solingan yashikchalar o'lchami 1,2 x 1,2 m va balandligi 18 - 20 sm bo'ladi. Parrandaxonalarda 1 m² joyga 1 kunlik jo'jalardan 25 bosh, 2 oyligida 16 bosh, 2-3 oyligida 12 bosh, 5 - 6 oyligida 9 bosh, katta tovuqlardan 4 - 5 bosh joylashtiriladi.

Parranda fabrikalarini qurishda ayniqsa o'sayotgan jo'jalar uchun ajratilgan binolar shamol esish tomoniga qaratib quriladi. Veterinariya jihozlari, sanitariya so'yish va util qilish sexlari shamol yo'nalishiga qarab quriladi. Parrandachilik fermalari har xil yuqumli kasalliklar tarqalmasligi uchun alohida sektorlarga bo'linadi: Bunda tuxum tug'adigan tovuqlar, inkubatsiya, so'yish, patlash, xo'jalik – boshqaruv bo'limlariga bo'linadi. Bu binolar bir biridan alohida ajratilib, maxsus eshiklar orqali kiriladi. Har bir bo'limga kirish joyida sanitariya ijozat xonasi, dezobarer, dezomat va boshqalar qurilishi kerak.

Tovuqlarni oziqlantirish, boqish, go'sht va tuxum yetkazishda gigiyena talablari - Parrandalarni oziqlantirishda ozuqa ratsionining to'yimlilik talab darajasida bo'lishi va ratsiondagi hazmlanuvchi protein, aminokislotalar, mineral moddalar va vitaminlar organizmning talabini qondirishi kerak. Ozuqa ratsionining tuyimlilik darajasi, mikroiklim ko'rsatkichlarini me'yor darajasida bo'lishi turli yuqumsiz, yuqumli va

parazitar kasaalliklarni oldini olish hamda organizm chidamliligini oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Jo'jalarni 60 kunligigacha kuniga 4 - 5 marta oziqlantirilib, oziqa doimo oxurdan uzilmasligi kerak. Parrandachilik xo'jaliklari uchun maxsus omuxta yem tayyorlanib, uning tarkibida kalsiy, fosfor, natriy, aminokislotalar, vitaminlar va makro - mikroelementlar bo'ladi.

Parrandalarga beriladigan oзуqalarni sifati past, sanitariya- gigiyena talablariga javob bermasa parrandalarning mahsuldorligi pasayadi va turli yuqumli kasalliklarga chalinadi. Jumladan aspergillyoz, kandidomikoz; avitaminoz, mineral va oqsil almashinishini buzilishi kasalliklarini keltirib chikaradi. Parrandalarda vitamin yetishish - yetishmasligini aniqlash uchun ulardan namuna so'yilib, jigarida vitamin A ni bor yo'qligini qaraladi. Masalan, bir kunlik jo'ja jigarida 15 - 20 mkg, 10 kunligida 25 - 30, 1 oyligida - 40; 2 - 4 oyligida 80 - 100 va kattalarida 300-350 mkg karotin bo'ladi.

Yirik xo'jaliklarda broyler jo'jalarining bosh soni 3 mln. gacha yetadi. Bunday xo'jaliklarda yil davomida jo'jalar 56 - 63 kun boqilib tirik vazni 1,5 kg ga yetkazib so'yiladi. Bunda jo'jalarni bosh sonini saqlab qolish - 97% bo'lib, 1 kg tirik vaznga 2,5 - 3 kg omuxta yem sarf bo'ladi. «Broyler-20» parrandaxonalarida asosiy ish mexanizatsiyalashgan. Bunda jo'jalar to'rt haftalik yoshigacha +18 - 20⁰S da saqlanib, nisbiy namlik 60-70%, havo harakati 0,5 - 1m/sek, SO₂ gazi 0,15 - 0,20%, ammiak 0,01-0,015 mg/l dan oshmasligi kerak. Ular uchun alohida yoritish tizimi bo'lib, 20 kunligigacha 24 soat, 21 - 40 kunligida 24 - 17 soat va 41 - 70 kunligida 17 soat davomida yoritilib turiladi. 1 m² joyga broyler jo'jalari 14 - 15 bosh joylashtiriladi.

Jo'jalar go'sht uchun kataklarda ham o'stiriladi. Umuman veterinariya-sanitariya gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish kerak. Oзуqalarning sifati, to'yimliliigi, ratsion tarkibi, mikroiklim ko'rsatkichlari, sifatli suv bilan ta'minlash va boshqalar nazorat qilinishi zarur.

Yirik ferma va fabrikalardagi tovuqlar erkin yurganlariga qaraganda kataklarda saqlangan jo'jalar tez yetiladi, hatto 15 kun oldin tulaydi. 1 - 60 kunlik jo'jalar uchun KBE-1 katakli batareyalar ishlatilib, uning uzunligi 31 m, eni 9 m bo'ladi. Unda elektr isitish batareyasi, sug'orish sistemasi, oziqlantirish, tozalash kabi ishlar mexanizatsiyalashgan bo'ladi. Keyingi yoshdagilar KBM-2, KBM-2A, KBM-25 batareyalarida saqlanib ular uzunligi va ko'p qavatligi bilan farq qiladi. Katta yoshdagi tovuqlar alohida yoki guruh holida kataklarda saqlanadi. Ko'pincha kataklar yoni va poli panjarali yoki to'rdan qilinadi. Polni oldingi tomoni pastroq qiya qilinadi, ya'ni tuxumni dumalab kelishi uchun eng ko'p tarqalgan, tuxum tug'adigan tovuqlar KBM-1 markali 4 qavatli katakli batareyalarda saqlanib, oзуqa tarqatish, tagini tozalash, tuxum terish kabi ishlar birdaniga bir harakat bilan bajariladi. Ixtisoslashgan fabrikalar 100-250 ming bosh tug'adigan tovuqqa mo'ljallanib quriladi. Jo'jalar saqlanadigan

binolarda nisbiy namlik 65-70 %, keyinchalik 55-60% bo'lishi va yoritishni 17 soatgacha yetkazish kerak. Uzoq yoritish jo'jalarni tuxumga kirishini tezlashtiradi, ammo o'sishni sekinlatib, tuxumni puchog'i ham qattiq bo'lmaydi. Tug'adigan tovuqlar uchun havo harorati $+16^{\circ} - 18^{\circ}\text{S}$, nisbiy namlik 60-70 % bo'lishi kerak.

Inkubatsiya va jo'jalarni o'stirish gigiyenasi – Parrandachilik xo'jaliklarida bir kunlik jo'ja olish uchun inkubatsiya keng qo'llaniladi. Ayniqsa «Universal» inkubatori keng qo'llanilib, unda tuxumlarni joylashtirish, havo almashish, harorat, namlik me'yori avtomatik boshqariladi. «Universal»-45 va «Universal»-50 inkubatorlari 45 yoki 50 ming tuxumga mo'ljallanib 3 ta inkubatsiya, 1 ta chiqish shkafi, eshigi va unda qarab turadigan oynasi bo'ladi. Tuxum joylashtiriladigan lotoklarni bittasiga 120 ta tovuq tuxumi, 90 ta o'rdak, 50 ta g'oz yoki ko'rka tuxumi sig'adi. Tuxum solingan lotok maxsus baraban ustiga o'rnatilgan bo'lib har 2 soatda avtomatik ravishda 90° ga buriladi. Inkubatsiya yashigida birinchi jo'jalar chiqishi boshlanishi bilan tuxumlar jo'ja chiqadigan yashigiga o'tkaziladi.

«Rekord – 39» va «Rekord – 42» inkubatorlari 39, 42 ming tuxumga mo'ljallanib, shaxsiy va fermer xo'jaliklar sharoitiga moslashtiriladi. Texnologik loyihaga asosan qurilgan inkubatsiya binosining o'lchami 54×18 m bo'lib, vodaprovod, kanalizatsiya, isitish va ventilyatsiya hisobga olingan. Inkubatsiya binosi tarkibiga inkubatsiya, jo'ja chiqish zali, tuxum qabul qilish, saqlash, saralash ombori, dezokamera, yuvish, bir kunlik jo'jani saqlash va saralash xonasi hamda qo'shimcha binolar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhanov, S. I. (2023). Fish branchiomycosis prevention measures. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 247-252.
2. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(4 Part 2), 75-78.
3. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. Scientific Impulse, 1(8), 586-592.
4. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(5), 77-84.
5. Xo'jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY VAZIFALARI. Journal of Integrated Education and Research, 2(8), 33-36.

6. Berdiyevich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB CHIQISHI, DAVOLASH VA OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 23-30.
7. Berdiyevich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TASHXIS QO 'YISH USULLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 3-13.
8. Berdiyevich, D. R. (2023). To Determine the Effectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Experiments. European Journal of Agricultural and Rural Education, 4(1), 8-9.
9. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures for the prevention of diseases caused by disorders of bee nutrition and feeding conditions. Academicia Globe, 3(03), 5-8.
10. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Вестник Ветеринарии и Животноводства, 1(1).
11. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoied animals. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 880-883.
12. Бердиев, Х. Р., & Давлатов, Р. Б. (2021). Эффективность Enrovit-О при химической профилактике колибактериоза цыплят.
13. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.
14. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. Ученый XXI века, (10 (81)), 12-14.
15. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 107-111.
16. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").
17. Berdiyevich, D. R. (2023). To Determine the Effectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Experiments. European Journal of Agricultural and Rural Education, 4(1), 8-9.
18. Nurmatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 615-617.
19. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.

20. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. Интернаука, (8-3), 44-46.
21. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. Ustozlar uchun, 89(1), 82-90.
22. Iskandar o'g'li, Q. A., & Razzoq Norbo'ta o'g, E. (2026). PARRANDALARNING CHECHAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO 'YISH. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UCHUN YUQTIRISH USULINI O'RGANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 347-357.
23. Erkinjon o'g'li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYASI YORDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYUKASSL VIRUSIDAN FARQLASH. TADQIQOTLAR, 79(2), 57-65.
24. Farxod o'g'li, A. S., & Sherali o'g'li, J. A. (2026). PARRANDALARDA CHECHAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 274-283.
25. Olim o'g'li, R. S., & Umidjon Ma'mur o'g, B. (2026). QUTURISH KASALLIGINING ALOMATLARI, TASHXISI VA OLDINI OLIH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 62(1), 61-68.
26. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). SOTUV UCHUN BOZORGA OLIB KELINAYOTGAN GO 'SHT MAHSULOTLARINI EKSPERTIZA QILISH TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 240-245.
27. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). GO 'SHT MAHSULOTLARINI EKSPERTIZADAN O 'TKAZISH TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 211-216.
28. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARIDAGI SALMONELLYOZ BAKTERIYASINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 225-231.
29. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). KARTOSHKKA SIFATINI ORGANOLEPTIK USULDA BAHOLASH. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 232-239.
30. Oglu, K. S. I., & Berdiyevich, D. R. (2024). DETERMINATION OF THE EFFECTIVENESS INDICATORS OF OFLOSAN AND ALISERYL WS ANTIBIOTICS IN PREVENTING COLIBACTERIOSIS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(12), 33-36.
31. Abdusattarov, A., Gaipova, M., Mengliev, G., Khujakhonov, S., & Amirov, A. (2024). Ways to increase the effectiveness of hyperimmune serum against colibacteriosis, salmonellosis and pasteurellosis of lambs. In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03040). EDP Sciences.

32. БУЗИЛИШЛАРИ, ЁШЖМ. "Улуков Бехзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирихўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон қизи." ББК 72.4 А43: 33.

33. Juraqul o'g'li, B. S. (2026). QUTURISH KASALLIGIGA LABORATORIYADA DIAGNOZ QO 'YISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 62(2), 213-219.

34. Muhammadali o'g'li, R. R., Faxriddin o'g'li, B. L., & Ulug'Bek o'g, I. S. (2026). OTLARNING YUQUMLI ANEMIYA, AFRIKA O 'LATI KASALLIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 62(2), 390-399.

35. Juraqul o'g'li, B. S. (2026). QUTURISH KASALLIGIGA LABORATORIYADA DIAGNOZ QO 'YISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 62(2), 213-219.

36. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. *Ustozlar uchun*, 89(1), 82-90.

37. Iskandar o'g'li, Q. A., & Razzoq Norbo'ta o'g, E. (2026). PARRANDALARNING CHECHAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO 'YISH. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UCHUN YUQTIRISH USULINI O'RGANISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 62(1), 347-357.

38. Erkinjon o'g'li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYASI YORDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYUKASSL VIRUSIDAN FARQLASH. *TADQIQOTLAR*, 79(2), 57-65.

39. Farxod o'g'li, A. S., & Sherali o'g'li, J. A. (2026). PARRANDALARDA CHECHAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 62(1), 274-283.

40. Olim o'g'li, R. S., & Umidjon Ma'mur o'g, B. (2026). QUTURISH KASALLIGINING ALOMATLARI, TASHXISI VA OLDINI OLISH USULLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 62(1), 61-68.